



KITOBIIYOT TARIXI. KITOBNING VOQELIKNI AKS ETTIRISH VOSITASI SIFATIDAGI TARIXIY ROLI

Yaxshibayeva Umidaxon Jumadillovna

*O'zJOKU Noshirlik ishi va muharrirlik
bo'limi II bosqich magistranti*

***Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqola raqamli texnologik jamiyatning axborot va kitobga bo'lgan munosabatida o'zgarishlar kuzatilayotgan bir davrda kitobiyot tarixini tadqiq qilish, uning voqelikni aks ettirish vositasi sifatidagi rolini aniqlash kabi bir qator masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Kitobiyot tarixida noshirlik ishi va kitob tushunchasiga yetakchi olim-u, mutaxassislarning fikrlari taqdim etilib, milliy nashriyot tizimida kitobiyot tarixining tadriji qay darajada tadqiq etilganligi ilmiy nuqtai nazardan tahlil etilgan.*

Ushbu ilmiy maqoladan ko'zlangan asosiy maqsad: noshirlik ishi faoliyatida kitobiyot tarixini tadqiq qilishning ahamiyati, erishilgan yutuq va tajribalar orqali zamonaviy nashriyotlar tizimida yangi tajriba va yechimlar taklif qilishdan iboratdir.

Ilmiy maqolada deduktiv va induktiv mantiqiy tahlil usullaridan, tavsif usuli, qiyosiy tahlillardan foydalanilgan holda ko'zlangan maqsadga erishilgan.

***Kalit so'zlar:** kitob, noshirlik ishi, biblioplistika, mutolaashunoslik, ksilografiya, matbaa.*

***Kirish.** Kitob va nashriyot tarixi insoniyat taraqqiyotining ajralmas qismi sanaladi. Nashriyot g'oya va fikrlarni taqdim qilishning asosiy unsuri sifatida insoniyat faoliyatining deyarli barcha sohalariga daxl qila oladi. Jamiyat va davlat taraqqiyotining barcha jabhalarida siyosatdan tortib, iqtisodiyot va ta'lim tizimigacha nashriyot mahsulotlari orqali rivojlanib, sayqal topib boraveradi.*

Kitobiyot tarixi nashriyot sohasining muhim qismidir. Bir qator tadqiqotchilarning fikricha, kitobiyot tarixi nashriyot jarayonining mustaqil fan sohasi hisoblanadi. Yana bir guruh tadqiqotchilar esa tarixiy tarkib nashriyot sohasining barcha asoslarini: tahrir, biblioplistika hamda mutolaashunoslik* va boshqalarni ham o'z ichiga qamrab olishini ta'kidlaydilar.*



Shuning uchun ilm sohasi vakillari tomonidan “kitobiyot tarixi” tushunchasiga turlicha yondoshuvlar taklif etiladi. Xususan, rossiyalik tarixchi, kitobshunos va tarix fanlari nomzodi Viktor Xarlamovning fikricha, kitobiyot tarixi tushunchasi ostida biz jamiyatdagi, borliqdagi kitob oqimini va bu oqimdagi vaqt va tafakkurni tushunamiz^[i].

Natija va mulohazalar. Rossiyalik kitobshunos, tarix fanlari doktori Sergey Luppov^[ii]ning konsepsiyasiga ko'ra, kitobiyot tarixi quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

– *kitob yaratish* (nashr jarayonining texnik va umumiy masalalariga doir tashkiliy masalalar, kitob qo'lyozmasini ko'chirish, bosma va qo'lyozma kitoblarning mavzusi, senzura, shriftlar, dastxat, imlo, kitobga bezak berish);

– *kitobni tarqatish* (kitob savdosi va uni tarqatishning boshqa usullari, xorijiy kitob mahsulotlarining ta'siri, kitob ayriboshlash);

– *yirik kitob fondlari va kutubxonalarini shakllantirish* (paydo bo'lish shartlari, tarkibi, jamiyat taraqqiyotiga ta'siri);

– *kitobdan foydalanish* (kitobxonlar, turli qatlam o'quvchilari talabining o'ziga xos xususiyatlari, kitob bu talablarni namoyon qilishning faol usuli sifatida).

Ushbu bosqichlarga muvofiq, noshirlik ishi sohasi predmeti va obyekti bilan farq qiluvchi tugal bilimlar tizimidan iborat bir qator maxsus fanlarni o'zida qamrab oladi^[iii]:

– noshirlik ishi bilimlari tizimi;

– kitob savdosi bilimlari tizimi (biblioplistika);

– kutubxona bilimlari tizimi (kutubxonachilik);

– bibliografik bilimlar tizimi (bibliografika fani).

Tarix fanlari doktori, professor Yevgeniy Nemirovskiy “Kitobiyot tarixi” tushunchasiga ta'rif berishda quyidagi mosliklarga asoslanishini taklif qildi: “ijtimoiy ong shakli – adabiyot – kitob” turkumi “mazmun – asar – hujjat”



turkumiga mos keladi. Bundan kelib chiqadiki, “ijtimoiy ong shakllari tarixi mazmun tadriji bilan, adabiyot tarixi asarlar evolyutsiyasi bilan, kitob tarixi esa hujjat evolyutsiyasi bilan bog‘liq”^[iv].

Kitobiyot tarixi kitobshunoslikning ajralmas qismi bo‘lganligi uchun “kitobiyot tarixi” tushunchasini “kitobshunoslik” tushunchasi bilan bog‘lash mantiqan to‘g‘ri keladi. Shu nuqtai nazardan, rossiyalik kitobshunos, filologiya fanlari doktori Alisa Belovitskaya tomonidan taklif qilingan ta‘rifdan foydalanadigan bo‘lsak, kitobiyot tarixi – ijtimoiy voqelikning tarixiy taraqqiyotidagi obyektiv hodisasi sifatida kitobning mohiyati, qonuniyatlari, jarayonlari va shakllari, harakati, rivojlanishi va faoliyati haqidagi ilmiy bilimlar majmuidir^[v].

Kitobning mohiyatini yaxshiroq tushunish uchun ushbu so‘zning kelib chiqish tarixini o‘rganish o‘rinlidir. Turli tillarda “kitob” deya ataluvchi so‘z etimologik jihatdan yozuv uchun materialni bildiruvchi atamalar bilan yoki qayd qilish usuli, uning mazmuni va vazifalari bilan bog‘liqdir.

“Kitob eng muhim axborot vositasi, siyosiy va mafkuraviy kurash quroli, bilim tarqatish, ta‘lim va tarbiyadir”^[vi]. Bu ta‘rifga ko‘ra kitobning vazifasiga alohida urg‘u berilmoqda.

O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida keltirilgan ta‘rifga ko‘ra: “Kitob – axborotlarni, g‘oya, obraz va bilimlarni saqlash hamda tarqatish, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, estetik qarashlarni shakllantirish vositasi; bilimlar targ‘iboti va tarbiya quroli; badiiy, ilmiy asar, ijtimoiy adabiyot”^[vii] demakdir.

Yuqoridagi ikki ta‘rifdan ham ko‘rinib turibdiki, kitob insoniyat tamaddunidagi eng noyob ixtirolardan biri bo‘lib, fikr, g‘oya va bilimlar majmui sanalar ekan.

Kitobiyot tarixi xususida so‘z borganda, shu sohaga oid tadqiqot olib borib, noshirlik ishi va muharrirlik yo‘nalishi talabalari uchun ajoyib va foydali darsliklar



voris qoldirgan olimlarning allaqachon “oltin fond”ga kiritilgan mumtoz asarlarini eslamay ilojimiz yo’q. Bu asarlar xali-hanuz xorij olimlari kutubxonasidan ehtirom bilan o’rin olib kelmoqda. Ya’ni ushbu asarlarda kitob yaratish texnologiyasining tarixiy jarayonlari tushunarli va dalillar bilan bayon qilingan. Bu asarlar: Daniyaning taniqli kitobshunosi Sven Dalning “Kitob tarixi”^[viii] va nemis kitobshunosi, filologiya fanlari doktori Frits Funkening “Kitobshunoslik”^[ix] darsliklaridir.

Ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilar ekanmiz, noshirlik ishining tarixi bir necha asrlarni o’z ichiga qamrab olganligining guvohi bo’lamiz. Uning kelib chiqishi matbaa ixtirochisi Iogannes Gutenberg va u haqida zamondoshlarining guvohliklari va xotiralarida bayon qilingan bo’lsa, kitobiyot tarixi bevosita antik davrlar bilan bog’liq ekanligini ko’rishimiz mumkin. Shunday qilib, kitobiyot tarixini biz 4 davrga bo’lamiz:

- Qo’lyozma kitoblar davri;
- Ixtiro va kitob bosib chiqarishni yo’lga qo’yish davri;
- Sanoat matbaa davri;
- Zamonaviy (axborotlashgan) davr^[x].

Qo’lyozma kitoblar davri o’z ichiga Qadimgi Misr, Mesopatamiyadan boshlab Qadimgi Yunoniston, Hindiston, arab davlatlari, Turkiston va boshqa bir qator o’lkalarda rivojlangan bo’lsa, *ixtiro va kitob bosib chiqarish texnologiyasi* yo’lga qo’yilishi bilan noshirlik ishi faoliyatining tamadduniga tamal toshi qo’yildi.

Qadimdan qo’lyozmalarni ko’paytirish usuli kashf qilingan. Ya’ni bu qoliplash usuli bo’lgan. U Qadimgi Misr va Mesopatamiya madaniyati davridayoq mashhur bo’lgan. Xususan, shumerlar (mil.avv III ming yillik) taxtaga o’yib tushirilgan qoliplardan foydalanishgan bo’lsa, misrliklar pishirilgan loyga tushirilgan qoliplardan foydalanishgan.



Bosmaxonalar ixtirosida qoliplardan tashqari gazlamalarga bosilgan gul naqshlarini ham nazardan chetda qoldirib bo'lmaydi. Mato yuzasiga bo'yoq orqali naqsh tushirishning bu usuli dastlab Sharqda ixtiro qilingan va salib yurishlari davrida Yevropa davlatlariga ham tarqalgan.

Jarayon quyidagicha amalga oshirilgan: matoga bosilishi kerak bo'lgan naqsh taxtaga o'ymakorlik yo'li bilan tushirilgan. So'ng taxta bo'yoqqa botirilib, matoga bostirib qo'yilgan. Bugungi kunda ham matolarga naqsh tushirishda ushbu usuldan foydalanishadi.

Darhaqiqat, xuddi shu texnologik sxema matni mexanik ravishda ko'paytirishning eng qadimgi usuli – hakkoklik (ksilografiya)ning kashf qilinishiga turtki bo'ldi.

Eng tastlabki ksilografiya texnikasi VII-VIII asrlarda xitoy buddalar ibodatxonasida kashf qilingan.

Bizgacha yetib kelgan eng qadimgi ksilografik nashr 764-777 yillarga tegishli Yaponiyada qayd qilingan. Bu budda talismani (afsun), u 6x46 sm o'lchamdagi qog'oz tasmasi bo'lib, unda har biri 5 ta belgidan iborat 30 ta matn ustunlari bosilgan.

770 yilda Yaponiyada imperator Shotoku buyrug'i bilan buddaviylik ibodatxonasiga miniatyura tarzida millionlab afsunlar ksilografik uslubda tushirilgan.

Bizgacha yetib kelgan eng qadimgi yog'ochdan yasalgan kitob – “Olmos sutra” – 868 yilda yaratilgan va 1900 yilda Dongxuandagi (G'arbiy Xitoy) Ming Budda g'oridan topilgan. U usta Van Chi tomonidan o'yilganligi haqida ma'lumotlar bor^[xi].

Yevropada ksilografiya XIV asr oxiri XV asr boshlarida paydo bo'lgan. Yog'och bilan bosilgan birinchi Yevropa kitoblari 1418 va 1423 yillarga to'g'ri keladi.



Chop etishning ancha ilg'or usuli bu harf terish bilan tavsiflanadi.

Harf terish yo'li bilan harakatlanuvchi shriftda chop etish haqidagi dastlabki ma'lumotlar XI asrga to'g'ri keladi. Xitoylik hunarmand Pi Sheng (Bi Sheng) loydan chorqirra shakl yasab, ularni metall plastinkaga birlashtirgan va qatron bilan mahkamlagan. Biroq, u tomonidan chop etilgan matnlar bugungi kungacha saqlanib qolmagan.

XIII asrda yog'och harflar bilan chop etish usuli ixtiro qilindi. Metall harflarni quyish birinchi marta Koreyada Choson imperiyasi davrida paydo bo'lgan. 1392 yilda imperatorning buyrug'i bilan kitob ishlab chiqarish va xatlarni quyish maqsadida Kitob boshqarmasi tashkil etildi. 1409, 1434 va 1437 yillarda metall harflar bilan bosilgan koreys kitoblari bugungi kungacha saqlanib qolgan.

Yevropada alohida harfli shtamlardan foydalanilgan. 1119 yilda Prufening monastirida (Regensburg yaqinida) shu tarzda loy lavhaga chuqurlashtirilgan bosilgan yozuv namunalarini ko'rishimiz mumkin.

Shuni alohida qayd etish kerakki, dastlabki bosmaxona alomatlari Sharq davlatlari va Yevropada bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda ixtiro qilingan.

Bugungi kunda butun dunyo matbaa sohasida keng foydalaniladigan bosmaxona uskunasi ixtiro qilgan shaxs bu – Henne (Iogann) Gensfleish fon Zulgelox bo'lib, keyinchalik onasining familiyasini – Gutenbergni qabul qiladi.

Gutenbergning eng mashhur nashri 42 qatorli Injildir (B42).

1450 yil may oyida Gutenberg Mayns burgeri Iogan Fustdan 800 gulden qarz oldi va asbob-uskunalar ishlab chiqarishni boshladi. 1452 yilda ikkinchi shartnoma tuzildi. Keyinchalik sheriklar kelisholmay qolib, Fust kreditni foizlari bilan qaytarishni talab qiladi. Qarzni to'lash uchun Gutenberg unga barcha jihozlarni va katta ehtimol bilan B42 nashrini ham berdi^[xii].



Gutenberg ixtirosining ahamiyati: alohida quyma harflarni terish orqali bosma plastinka yasash usulini, harf terish yo'li bilan qog'ozga bosiladigan bosmaxona (press) moslamasini, bosmaxona siyohini ixtiro qilganligi bilan belgilanadi.

Shu tarzda nashr qilish jarayonining asosiy komponentlari yaratildi:

- *harf quyish jarayoni* – bir xil harflarni yetarlicha ko'p nusxada ishlab chiqarish;
- *matn terish jarayoni* – alohida, oldindan quyma harflardan tashkil topgan bosma shaklni tayyorlash;
- *bosib chiqarish jarayoni* – matn terish uskunasi orqali bosib chiqarilgan ko'plab namunalar.

Markaziy Osiyoda kitob madaniyati va nashrlik sohasi o'ziga xos, boy an'ana va ko'p asrlik tarixga ega. O'zbekiston kitobiyoti tarixini bir qator taniqli olimlar tadqiqotlarida ko'rishimiz mumkin. Atoqli tarixchi va sharqshunos, O'rta Osiyoning taniqli kitobshunos olimi Yevgeniy Betger (1887–1956) birinchilardan bo'lib kitob nashriyatini o'rganishga katta hissa qo'shdi. Uning “O'zbekistonda kitob nashr etish tarixidan (birinchi o'zbek litografik kitobining 70 yilligiga)”^[xiii] tadqiqoti, aslida, hozirgi O'zbekiston hududida kitob chop etishning boshlanishiga bag'ishlangan dastlabki ilmiy ish edi. Asarda ko'rib chiqilgan masalalar: kitob nashrining paydo bo'lishi, birinchi bosmaxonalar va toshbosmalarning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, unda o'zbek va rus tillarida ilk bosma kitoblarning nashr etilgan vaqti haqidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan.

XIX asr o'rtalarida Turkiston o'lkasi Rossiya imperiyasiga qo'shib olingandan so'ng Toshkentga kichik bosmaxona keltirilib, u 1868 yilda harbiy okrug shtabi nazoratida ishlay boshlagan va Rossiya ma'muriyati ehtiyojlariga xizmat qilgan. Keyingi yili Toshkentda Sharqiy Osiyodagi birinchi davriy nashr hisoblangan “Туркестанские ведомости” rasmiy gazetasini chiqarish uchun mo'ljallangan ikkinchi bosmaxona ochildi. “Туркестанские ведомости” gazetasi



1870 yildan 1917 yilgacha faoliyat ko'rsatgan^[xiv]. Matbaada kirill alifbosidan tashqari arab alifbosi ham qo'llanilgan bo'lib, "Туркестанские ведомости"ga qo'shimchalarni o'zbek va qozoq ("Түркістан Уэлаятының Газеті") tillarida chop etish uchun foydalanilgan.

1871 yilda bosmaxonada Sharqiy Osiyoda birinchi bosma kitob – "Rossiya Turkistoni va O'rta Osiyo mamlakatlari haqidagi materiallar to'plami" nashr etilgan. O'sha yili tarjimon, "Туркестанские ведомости" gazetasi xodimi Shohimardan Ibrohimovning o'zbek tilida birinchi kitobi – "1872 yil taqvimi" nashr etildi^[xv].

Yana bir manbaada keltirilishicha, Toshkentda birinchi toshbosma kitob 1883 yilda rus savdogari Semyon Ivanovich Laxtin bosmaxonasida bosilib, toshkentlik Esonboy Husaynboyev hisobidan chop etilgan. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, litografiya uskunolari 1882 yilda Yevropa Rossiyasidan ellikdan ortiq tuyada olib kelingan. Temir savdosi bilan shug'ullanuvchi E.Husaynboyev kitobni juda yaxshi ko'rib, ilm-fanga katta mehr qo'ygan shaxslardan bo'lgan. Uning yordami va talabi bilan Laxtin toshbosmani jihozlaydi va O'zbekistonda birinchi xususiy o'zbek nashriyoti o'z ona tilida kitoblar nashr eta boshlaydi^[xvi].

Inqilobdan oldingi Turkistonning noshirlik ishini o'rgangan tadqiqotchilardan yana biri professor Georgiy Chabrov edi. U o'zining "A.Navoiy asarlarining O'rta Osiyoda birinchi toshbosma nashrlari"^[xvii] va "XIX asrning 2-yarmida O'rta Osiyoda matbaachilik"^[xviii] tadqiqot ishlarida matbaa korxonalarining paydo bo'lishi va faoliyati, o'sha davrdagi nashrlarning mintaqaga, Rossiya, Hindiston, Eron va Turkiya hududlariga tarqalishini ko'rib chiqadi. Shuningdek, u inqilobdan oldingi Turkistonda kitob nashr etish dinamikasi va kitob nashriyotining rivojlanish xususiyatlarini ilmiy tahlil qiladi. G.N. Chabrovning hujjat va arxiv manbalariga asoslangan bu tadqiqotlari o'zbek kitobiyot tarixini o'rganishda



muhim manbaa sanaladi. Olimning ilmiy izlanishlari butun Markaziy Osiyoda noshirlik ishi tarixini o'rganishda salmoqli hissa bo'lib qo'shildi.

O'zbek matbaachiligiga oid ilmiy tadqiqot namunalarini sovet davrida ijod qilgan olimlar: Ziyo Said[, N.F. Simonov, T.Ernazarov, A.Akbarovlar, P.Hamdamiyov, M.I.Rustamov, Z.Yuldashev, F.N.Rojinskaya, A. Boboxonovlarning maqola va asarlarida uchratsak, mustaqillik yillarida olib borilgan ahamiyatli ilmiy izlanishlar: T.Pidayev, B.Do'stqorayev, A.Kattaboyev, A.Boboxonov, Z.Esenboyev, B.Qosimov, K.Rahmonov, A.Mirzorahimov, A.Abduazizova, Z.Abdurashidov, L.Xolnazarova, S.Shodmonova, A.Rasulov, A.Isoqboyev[35], D.Nasriddinov va boshqalarning kitob, risola, dissertatsiya va maqolalarida ko'rishimiz mumkin.

Dunyoning boshqa xalqlari kitobiyot tarixi kabi Markaziy Osiyo kitobshunosligi ham asrlar davomida o'zining mustahkam ma'naviy qadriyatlarini to'plashga erishdi.

Markaziy osiyoda noshirlik ishi va matbaa sohasining rivojlanishi kitob savdosi ko'lamini kengaytirib, kutubxonalar va bibliografik asarlar paydo bo'lishiga, jamiyatda kitobning davriy harakatini ta'minlovchi noshirlik ishi tarmoqlarini shakllantirishga turtki bo'ldi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, har bir davr kitobiyot tarixi va uning tadrijida o'chmas iz qoldirgan. Buni ko'plab mutafakkir olim-u ilm fidoyilarining tadqiqot namunalaridan ham ko'rishimiz mumkin.

Azaldan ilm-ma'rifat maydoni sanalgan Markaziy Osiyoda ham kitobiyot tarixi ulkan va murakkab davrni bosib o'tdi. O'zbekistonda noshirlik sohasi ikki ulkan davrni o'z ichiga qamrab oldi: sobiq sovet davri hamda mustaqillikdan keyingi davrlarni. Har ikkala davrda ham kitobsevar xalq farzandlari noshirlik sohasi va kitob bosib chiqarish faoliyatida o'zining ulkan hissasini qo'shishdi.



Noshirlik sohasi axborot uzatish jarayonida bir ulkan tarmoq sifatida shakllanar ekan, o'z yo'nalish va uslubiga, o'ziga xos tabiatiga ega bo'lib bordi. Noshirlik sohasining kasb turlari: muharrirlik, musahhihlik, badiiy bezak ustasi va texnik muharrir kabi sohalari rivojlandi.

Endigi oldimizda turgan muhim va dolzarb masalalardan biri bu elkektron nashrlar qatori qog'oz nashrlarning sifati va zamon talablariga mos ravishda sayqal topishini ta'minlash maqsadida sohaga doir izlanishlar va ilmiy yechimlar taqdim etishdan iboratdir. Bu o'rinda kitob tahriri, uning dizayni va marketing masalalarini hisobga olgan holda, milliy nashriyot tizimini ishlab chiqish va sohaga tadbiq etishdan iboratdir. Navbatdagi bobda jahonning ilg'or va tajribali nashriyotlarining shu xususidagi izlanishlari natijalari va bunga berilgan ilmiy takliflar xususida fikr yuritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- ⁱ Харламов В.И. К вопросу об истории книги как историко-культурной дисциплине // Книга. Исследования и материалы. Сб. 53. М. 1986.– С. 43.
- ⁱⁱ Луппов С.П. История книги как комплексная научная дисциплина // Проблемы ру-кописной и печатной книги. М.: Изд-во Наука, 1976. – С. 3-11.
- ⁱⁱⁱ Беловицкая А.А. Книговедение. Общее книговедение. Учебник. М.: – МГУП, 2006. – С. 187–203.
- ^{iv} Немировский Е.Л. К вопросу о предмете истории книги // Книга и культура. М.: Наука, 1979. С. 46–47.
- ^v Беловицкая А.А. Книговедение. Общее книговедение: учебник / Моск. гос. ун-т печати. М.: – МГУП, 2006. – С. 182.
- ^{vi} Прохоров А.М. Советский энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия. 1982. С. 251-252.
- ^{vii} O'zbekiston milliy ensiklopediyasi – K harfi. T.: O'zME Davlat ilmiy nashriyoti. 2000-2006. B. 419.
- ^{viii} Dahl S. Bogens historie. 2. ændr. og forøgede udg. København: Haase, 1957. 309 s
- ^{ix} Функе Ф. Книговедение. Исторический обзор книжного дела. Пер. с нем. Боссарта Б. П.; под ред. со вступительной
- ^x Есипова В.А. История книги: Учебник по курсу “История книжного дела”. – Томск: Изд-во Том. ун-та, 2011. С. 6.



-
- ^{xi} Есипова В.А. История книги: Учебник по курсу «История книжного дела». – Томск: Изд-во Том. ун-та, 2011. – С. 134.
- ^{xii} Есипова В.А. История книги: Учебник по курсу «История книжного дела». – Томск: Изд-во Том. ун-та, 2011. – С. 139.
- ^{xiii} Бетгер Е.К. Из истории книжного дела в Узбекистане (к 70-летию появления первой узбекской литографированной книги) // Известия АН Уз ССР. 1951. № 2. С. 77-91.
- ^{xiv} Шадманова С. Б. Архивные документы – важный источник изучения истории периодической печати Туркестана. По материалам Центрального государственного архива Республики Узбекистан. Вестник архивиста. М.: РОИА – 2009. – № 3 (107). – С. 23-37.
- ^{xv} Ахунджанов Э. А. Становление и развитие книгоиздательского дела в Узбекской ССР (Основные этапы и ведущие тенденции): Автореф. дисс. на соиск. учен. степени канд. филол. наук по специальности “Книговедение”, М.: 1977. – 24 с.
- ^{xvi} Аракелов С.Р. Книжная культура Узбекистана как актуальное научное исследование: историографический аспект. Молодой учёный . № 29 (133) К.: – Изд.-во Молодой учёный. 2016 г. С.625.
- ^{xvii} Чабров Г.Н. Первые литографированные издания произведений Алишера Навои в Средней Азии // Звезда Востока, 1948. - № 3. - С.98-100
- ^{xviii} Чабров Г.Н. Книгопечатание в Средней Азии второй половины XIX в. // 400 лет русского книгопечатания, 1564-1964. М.: Наука, 1964. С. 463-466.